# BUYUK IPAK YO‘LINING O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI SHAHARLAR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJIGA TA’SIRI (ANTIK VA ILK O‘RTA ASRLAR)

**Saburov Zafarbek Sabirovich**
Urganch shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari
z.s.zafarbek@mail.ru
s.z.saburov@gmail.com
**DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22983465**

**Annotatsiya.** Maqolada Buyuk Ipak yo‘lining antik va ilk o‘rta asrlar davrida hozirgi O‘zbekiston hududida joylashgan shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Sug‘d, Baqtriya, Choch, Farg‘ona va Xorazm shaharlari misolida xalqaro savdoning shahar tuzilmasi, hunarmandchilik ixtisoslashuvi, pul muomalasi va ijtimoiy tabaqalanishga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Savdo yo‘lining shaharlarga ta’sirini tranzit daromadi, hunarmandchilik ixtisoslashuvi va ijtimoiy tuzilmaning murakkablashuvi kabi uch mexanizm orqali izohlanadi hamda tashqi savdoga haddan ortiq bog‘liqlik shaharlar uchun zaiflik omili bo‘lganini asoslaydi.

**Kalit so‘zlar:** Buyuk Ipak yo‘li, antik davr, ilk o‘rta asrlar, Sug‘d, shaharsozlik, hunarmandchilik, xalqaro savdo, sug‘d savdogarlari, pul muomalasi.

**Аннотация.** В статье анализируется влияние Великого шелкового пути на социально-экономическое развитие городов, расположенных на территории современного Узбекистана, в период античности и раннего средневековья. На примере городов Согда, Бактрии, Чача, Ферганы и Хорезма рассматривается влияние международной торговли на городскую структуру, ремесленную специализацию, денежное обращение и социальную стратификацию. Воздействие торгового пути на города объясняется через три механизма: транзитный доход, ремесленную специализацию и усложнение социальной структуры. Кроме того, обосновывается, что чрезмерная зависимость от внешней торговли являлась фактором уязвимости городов.

**Ключевые слова:** Великий шелковый путь, античность, раннее средневековье, Согд, градостроительство, ремесло, международная торговля, согдийские купцы, денежное обращение.

**Abstract.** The article analyzes the impact of the Great Silk Road on the socio-economic development of cities located on the territory of present-day Uzbekistan during antiquity and the early Middle Ages. Using the cities of Sogd, Bactria, Chach, Fergana and Khorezm as examples, it examines the influence of international trade on urban structure, craft specialization, monetary circulation and social stratification. The impact of the trade route on cities is explained through three mechanisms: transit revenue, craft specialization and the growing complexity of the social structure. The article also argues that excessive dependence on foreign trade was a factor of vulnerability for cities.

**Keywords:** Great Silk Road, antiquity, early Middle Ages, Sogd, urban development, crafts, international trade, Sogdian merchants, monetary circulation.


© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

**KIRISH**

O‘rta Osiyo hududi qadimdan Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarini bog‘lovchi chorraha vazifasini bajarib kelgan. Miloddan avvalgi II asrda Xitoy elchisi Chjan Szyanning G‘arbiy o‘lkalarga safari natijasida muntazam tus olgan transkontinental savdo tizimi keyinchalik ilm-fanda Buyuk Ipak yo‘li nomi bilan mashhur bo‘ldi. Mazkur yo‘l nafaqat tovar ayirboshlash kanali, balki g‘oyalar, texnologiyalar, dinlar va madaniy an’analar almashinuvi makoni ham edi [6]. Hozirgi O‘zbekiston hududida joylashgan Samarqand, Buxoro, Termiz, Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysi shaharlari ushbu tizimning eng muhim tugunlaridan hisoblangan. Shu bois ularning shakllanishi va rivojlanishini Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘liq holda o‘rganish mintaqa tarixini chuqur anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotda savdo yo‘lining shaharlarga ta’siri ko‘pincha umumiy tarzda, yo‘l mavjudligi o‘z-o‘zidan farovonlik keltirgan degan qarash doirasida talqin qilinadi. Holbuki, xalqaro savdoning shahar iqtisodiyoti va jamiyatiga ta’siri ko‘p qirrali, ayrim hollarda esa ziddiyatli jarayon bo‘lgan. Muammoning dolzarbligi, bir tomondan, O‘zbekistonning bugungi kunda transport-tranzit salohiyatini tiklash siyosati bilan, ikkinchi tomondan, so‘nggi o‘n yilliklarda arxeologik va manbashunoslik tadqiqotlarida to‘plangan yangi ma’lumotlarni umumlashtirish zarurati bilan belgilanadi.

**METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI**

Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, obyektivlik va tizimlilik tamoyillari tashkil etadi. Ishda qiyosiy-tarixiy, tarixiy-genetik va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Rus tilidagi tadqiqotlar orasida E.V. Rtveladzening Buyuk Ipak yo‘liga bag‘ishlangan ensiklopedik ma’lumotnomasi alohida o‘rin tutadi. Muallif antik va ilk o‘rta asrlar davridagi yo‘l tarmoqlari, shaharlar, savdo mahsulotlari va tangalar haqidagi ma’lumotlarni tizimlashtirib, O‘rta Osiyo shaharlarining xalqaro savdodagi rolini aniq arxeologik dalillar asosida ko‘rsatgan [1]. A.M. Belenitskiy, I.B. Bentovich va O.G. Bolshakovning jamoaviy monografiyasi O‘rta Osiyo shahrining tuzilmasi va evolyutsiyasini o‘rganishda asosiy tadqiqot hisoblanadi.

Unda ilk o‘rta asrlar shahrining ark, shahriston va rabotdan iborat uch qismli tuzilmasi hamda uning ijtimoiy mazmuni batafsil tahlil qilingan [3]. V.A. Shishkinning Varaxsha yodgorligiga oid tadqiqoti Buxoro vohasidagi hukmdor qarorgohi va unga tutash savdo-hunarmandchilik muhitini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [2]. Yu.F. Buryakov esa Toshkent vohasi shahar madaniyatining genezisi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, Choch shaharlarining shakllanishida ko‘chmanchi va o‘troq aholi o‘rtasidagi savdo aloqalarining hal qiluvchi ahamiyatini asoslagan [4]. O‘zbek tilidagi tadqiqotlar orasida akademik A. Asqarovning o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga bag‘ishlangan fundamental asari muhim o‘rin egallaydi, unda qadimgi shahar madaniyatining mahalliy ildizlari va tashqi aloqalar bilan uyg‘unlashuvi ko‘rsatib berilgan [8]. A.S. Sagdullayev qadimgi yozma manbalarda O‘zbekiston hududi haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilib, antik davr aholi punktlari va ularning iqtisodiy hayoti manzarasini tiklagan [9].

K. Shoniyozovning Qang‘ davlati tarixiga oid monografiyasi esa Qang‘ davrida savdo yo‘llari ustidan nazorat va shaharlarning rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritadi [10]. Xorijiy tadqiqotlardan E. de la Vessyerning sug‘d savdogarlari tarixiga bag‘ishlangan asari alohida ahamiyatga ega. Muallif sug‘d diasporasi tarmoqlarining shakllanishi va faoliyatini keng manbalar asosida tahlil qilib, Sug‘d shaharlarini Yevroosiyo savdosining markaziy bo‘g‘ini sifatida ko‘rsatgan [5]. V. Hansen esa ancha tanqidiy yondashuvni ilgari surib, Ipak yo‘li orqali o‘tgan tovarlar hajmi ko‘pincha bo‘rttirib ko‘rsatilishini, savdoning katta qismi mahalliy va mintaqaviy xarakterga ega bo‘lganini ta’kidlaydi [6]. R. Fraye O‘rta Osiyo tarixiy merosini antik davrdan turk ekspansiyasigacha bo‘lgan davrda keng kontekstda ko‘rib chiqib, eron tilli shahar madaniyati va savdo an’analarining uzviyligini asoslagan [7]. Adabiyotlar


© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilar savdo yo‘lining shaharlar uchun ahamiyatini yakdillik bilan e’tirof etsa-da, uning miqyosi va ta’sir mexanizmlarini baholashda sezilarli farqlar mavjud. Aynan shu farqlar ushbu maqolada muallif tahlilining asosiy obyektiga aylandi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida Buyuk Ipak yo‘lining O‘zbekiston hududidagi shaharlarga ta’siri uch asosiy mexanizm orqali amalga oshganligi aniqlandi. Birinchi mexanizm tranzit daromadi va savdo infratuzilmasining shakllanishi bilan bog‘liq. Antik davrda Baqtriyadagi Termiz, Kampirtepa va Dalvarzintepa kabi shaharlar Amudaryo kechuvlari hamda Hindiston va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi yo‘llar kesishmasida joylashgani tufayli jadal rivojlangan [1]. Kushonlar davrida bu shaharlarda mudofaa devorlari, omborxonalar, bojxona vazifasini bajargan inshootlar va savdo mahallalari paydo bo‘lgan.

Muallif fikricha, bu holat shaharning joylashuvi va uning iqtisodiy salohiyati o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni ko‘rsatadi: savdo yo‘lidagi strategik nuqta shahar uchun doimiy daromad manbai bo‘lib, hukmdorlar bu daromadni mudofaa va obodonchilikka yo‘naltirgan. Qang‘ davlati davrida Choch va Sug‘d hududidagi shaharlar ustidan nazorat o‘rnatilishi ham xuddi shu mantiqqa asoslangan edi, chunki savdo yo‘llari nazorati siyosiy qudratning iqtisodiy asosini tashkil etgan [10]. Ikkinchi mexanizm hunarmandchilik ixtisoslashuvi va importni mahalliy ishlab chiqarish bilan almashtirish jarayonidir. Arxeologik ma’lumotlar Samarqand, Paykand, Varaxsha va Kanka kabi shaharlarda kulolchilik, shishasozlik, metallga ishlov berish va to‘qimachilik ustaxonalarining ilk o‘rta asrlarda keskin ko‘payganini ko‘rsatadi [3].

Dastlab chetdan keltirilgan ipak matolar va shisha buyumlarning keyinchalik mahalliy ustalar tomonidan ishlab chiqarila boshlanishi, xususan Buxoro vohasida zandanachi matolarining paydo bo‘lishi, savdo yo‘lining shunchaki tovar o‘tkazuvchi kanal emas, balki texnologiyalar transferi vositasi bo‘lganini tasdiqlaydi [2]. Shaxsiy tahlilimizga ko‘ra, aynan shu jarayon shaharlarning barqaror rivojlanishini ta’minlagan, chunki tranzit daromadidan farqli o‘laroq, hunarmandchilik ishlab chiqarishi shaharni tashqi konyunkturaga nisbatan mustaqilroq qilgan. Uchinchi mexanizm ijtimoiy tuzilmaning murakkablashuvi bilan bog‘liq. Ilk o‘rta asrlarda Sug‘d shaharlarida dehqonlar, savdogarlar, hunarmandlar va ruhoniylardan iborat ko‘p qatlamli jamiyat shakllangan. De la Vessyer ko‘rsatganidek, sug‘d savdogarlari Xitoygacha cho‘zilgan koloniyalar tarmog‘ini yaratib, oilaviy va jamoaviy aloqalar asosida faoliyat yuritgan [5]. Bu tarmoqlarning markazi Samarqand va boshqa Sug‘d shaharlari bo‘lib, savdo daromadi mahalliy zodagonlar va savdogarlar qo‘lida to‘plangan. Natijada shahar zodagonlari qatlami kuchayib, hashamatli saroylar va koshonalar qurilishi avj olgan, bu esa Afrosiyob devoriy rasmlari va Varaxsha saroyi bezaklarida yaqqol namoyon bo‘ladi [7].

Shu bilan birga, savdo daromadining notekis taqsimlanishi ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirgan. Belenitskiy va hammualliflar ta’kidlaganidek, shahristonda zodagonlar va boy savdogarlar, rabotda esa hunarmandlar va mayda savdogarlar yashagan, bu esa shahar makonining o‘zida ijtimoiy tengsizlik aks etganini ko‘rsatadi [3]. Pul muomalasining rivojlanishi ham ushbu jarayonlarning muhim ko‘rsatkichidir. Sug‘d, Choch, Buxoro va Xorazmda ilk o‘rta asrlarda mahalliy tangalarning keng zarb qilinishi, jumladan Xitoy namunasidagi o‘rtasi teshik mis tangalarning paydo bo‘lishi ichki bozorning shakllanganidan dalolat beradi [1]. Muhokama doirasida Hansenning tanqidiy yondashuvi alohida e’tiborga loyiq. Uning fikricha, Ipak yo‘li orqali o‘tgan uzoq masofali savdo hajmi nisbatan kichik bo‘lib, savdoning asosiy qismi mahalliy ayirboshlashdan iborat bo‘lgan [6]. Bizning nazarimizda, bu yondashuv O‘zbekiston hududidagi shaharlar tarixiga nisbatan qisman o‘rinli bo‘lsa-da, xalqaro savdoning sifat jihatidan ta’sirini yetarlicha baholamaydi.


© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Hatto hajman cheklangan bo‘lgan taqdirda ham qimmatbaho tovarlar savdosi yuqori qo‘shimcha qiymat keltirgan, yangi texnologiyalar va g‘oyalarni olib kirgan hamda shahar elitasining shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatgan. Boshqa tomondan, Asqarov va Sagdullayev ta’kidlaganidek, O‘zbekiston hududidagi shahar madaniyati Ipak yo‘li rasmiy shakllanishidan ancha oldin, bronza va ilk temir davrida vujudga kelgan [8; 9]. Bu esa savdo yo‘lining shaharlarni yaratgani emas, balki mavjud shahar markazlarining rivojlanishini tezlashtirgani va yo‘naltirganini ko‘rsatadi.

Tahlil yana bir muhim jihatni ochib beradi: tashqi savdoga haddan ortiq bog‘liqlik shaharlar uchun zaiflik omili ham bo‘lgan. Siyosiy beqarorlik, ko‘chmanchilar yurishlari yoki savdo yo‘nalishlarining o‘zgarishi ayrim shaharlarning tanazzulga uchrashiga olib kelgan. Ilk o‘rta asrlarda Baqtriyaning ayrim antik shaharlari hayotining so‘nishi va Sug‘d hamda Choch shaharlarining yuksalishi savdo yo‘nalishlarining shimolga siljishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [4]. Muallif fikricha, bu holat hunarmandchilik va dehqonchilik bazasini rivojlantirgan shaharlarning tranzitga tayangan shaharlarga nisbatan barqarorroq bo‘lganini tasdiqlaydi.

**XULOSA**

O‘tkazilgan tahlil Buyuk Ipak yo‘li antik va ilk o‘rta asrlar davrida O‘zbekiston hududidagi shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim, ammo yagona bo‘lmagan omil bo‘lganini ko‘rsatdi. Savdo yo‘li shaharlarning paydo bo‘lishiga emas, balki ularning taraqqiyotini tezlashtirishga, iqtisodiy tuzilmasini murakkablashtirishga va xalqaro aloqalar tizimiga integratsiyalashuviga xizmat qilgan. Savdo yo‘lining ta’siri uch asosiy mexanizm, ya’ni tranzit daromadi va savdo infratuzilmasining shakllanishi, hunarmandchilik ixtisoslashuvi va texnologiyalar transferi, shuningdek ijtimoiy tuzilmaning murakkablashuvi orqali amalga oshgan. Ushbu mexanizmlar orasida hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivojlanishi shaharlarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda eng muhim rol o‘ynagan. Shu bilan birga, xalqaro savdo ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirgan va tashqi siyosiy hamda iqtisodiy omillarga bog‘liqlik tufayli ayrim shaharlar uchun zaiflik manbaiga aylangan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ртveladze Э.В. Великий шелковый путь: энциклопедический справочник. Древность и раннее средневековье. Ташкент: Узбекистон миллий энциклопедияси, 1999. 280 с.
2. Шишкин В.А. Варахша. М.: Изд-во АН СССР, 1963. 250 с.
3. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л.: Наука, 1973. 390 с.
4. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан, 1982. 212 с.
5. de la Vaissière É. Sogdian Traders: A History. Leiden; Boston: Brill, 2005. 413 p.
6. Hansen V. The Silk Road: A New History. Oxford; New York: Oxford University Press, 2012. 304 p.
7. Frye R.N. The Heritage of Central Asia: From Antiquity to the Turkish Expansion. Princeton: Markus Wiener Publishers, 1996. 264 p.
8. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent: O‘zbekiston, 2015. 680 b.
9. Sagdullayev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. Toshkent: O‘qituvchi, 1996. 160 b.
10. Shoniyozov K. Qang‘ davlati va qang‘lilar. Toshkent: Fan, 1990. 160 b.


© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.